

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI
SAVODXONLIKNI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ
ГРАМОТНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА****PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING DIGITAL LITERACY
IN PRESCHOOL CHILDREN****Bobomurodova Latofat Elmurodovna***Innovatsion texnologiyalar universiteti,**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***Karimova Uzlifat Halimjon qizi***Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti***Annotatsiya**

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli savodxonlikni shakillantirishning pedagogik asoslari tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy qilinishi bolalarda raqamli qurilmalardan ongli, xavfsiz va maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotda maktabgacha yosh davrining psixologik-pedagogik xususiyatlari, raqamli savodxonlik tushunchasining mazmuni hamda uni shakillantirishda qo'llaniladigan pedagogik prinsiplar yoritilgan.

Abstract

This article analyzes the pedagogical foundations of developing digital literacy in preschool children. The widespread integration of digital technologies into the educational process makes the development of conscious, safe, and purposeful use of digital devices by children a pressing issue. The study highlights the psychological and pedagogical characteristics of preschool age, the content of the concept of digital literacy, and the pedagogical principles applied in the process of its formation.

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические основы формирования цифровой грамотности у детей дошкольного возраста. Широкое внедрение цифровых технологий в образовательный процесс делает актуальной задачу развития у детей навыков осознанного, безопасного и целенаправленного использования цифровых устройств. В исследовании раскрываются психолого-педагогические особенности дошкольного возраста, содержание понятия цифровой грамотности, а также педагогические принципы, применяемые в процессе её формирования.

Kalit soʻzlar: Maktabgacha taʼlim, raqamli savodxonlik, pedagogik asoslar, oʻyin asosida taʼlim, bolalar rivoji, raqamli muhit.

Ключевые слова: дошкольное образование, цифровая грамотность, педагогические основы, игровое обучение, развитие детей, цифровая среда

Keywords: preschool education, digital literacy, pedagogical foundations, game-based learning, child development, digital environment

KIRISH: Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda taʼlim tizimida raqamli savodxonlikni shakillantirish muhim strategik vazifalardan biriga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida bolalar erta yoshdan raqamli qurilmalar bilan muloqotga kirishmoqda. Shu sababli maktabgacha taʼlim bosqichidayoq bolalarda raqamli savodxonlikni shakillantirish pedagogik muammo hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakillanishining asosiy bosqichi hisoblanib, shu davrda bilish jarayonlari, tafakkur, nutq, va ijtimoiy koʻnikmalar rivojlanadi. Raqamli savodxonlikni erta yoshdan shakillantirish bolalarning kelgusidagi taʼlim-tarbiya jarayoniga moslashuvini yengillashtiradi hamda axborot muhitida ongli va xavfsiz faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va farmonlar maktabgacha taʼlim tizimida raqamli savodxonlikni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlarini belgilab, pedagogik jarayonlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiiq etish boʻyicha normativ asos yaratdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha taʼlim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni 2017-yil 30-sentyabrda qabul qilingan farmon maktabgacha taʼlim tizimini modernizatsiya qilish va sifatni oshirish boʻyicha strategik choralarni belgilaydi. Ushbu farmonda maktabgacha taʼlimda raqamli va zamonaviy taʼlim muhitini yaratish ham asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan. “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonunda ham taʼlim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va tarbiyalanuvchilarning zamonaviy koʻnikmalarini shakillantirishini belgilaydi. “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi qonun 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan bu qonun maktabgacha taʼlim sohasidagi davlat siyosatini belgilaydi va maktabgacha taʼlim tashkilotlarining faoliyatini tartibga soladi. Qonunda bolalarning umumiy rivojlanishini taʼminlash, taʼlim sifati va ilgʻor pedagogik yondashuvlarni tadbiiq etish kabi prinsiplar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli savodxonlikni shakillantirish masalasi soʻngi yillarda pedagogika fanida muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri

sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli savodxonlik bolalarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim sohasining nazariy asoslari M. Abdullayevaning "Maktabgacha pedagogika" kitobida keng yoritilgan. Muallif maktabgacha yosh davrining psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilib, bolalar rivojida o'yin faoliyatining yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi.

H. To'xtayeva va N. Karimovanning "Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar" nomli kitobida maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari atroflicha yoritilgan. Ushbu mualliflar innovatsion texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni, bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab berganlar.

Z. Xolmatovanning ilmiy maqolalarida bolalarda raqamli kompetensiyalarni shakillantirish masalalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan. Muallif raqamli savodxonlikni shakillantirishda pedagogning kasbiy kompetensiyasi muhim omil ekanligini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli muhit yaratish zarurligini asoslab beradi.

ASOSIY QISM. Raqamli savodxonlik tushunchasi shaxsning raqamli texnologiyalardan samarali, ongli tarzda foydalanish qobiliyatini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ushbu tushuncha murakkab texnik bilimlarni egalashni emas, balki raqamli texnologiyalar haqida dastlabki tasavvurlarini shakillantirish hisoblanadi. Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim tizimida raqamli savodxonlik bolalarning bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiy va intellektual rivojlanishida muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning tafakkuri asosan obrazli xarakterga ega bo'lib ular bilimni ko'proq o'yin, tasvir va taqlid orqali egallaydilar. Diqqatning barqarorligi qisqa muddatli bo'lgani sababli o'quv faoliyati qiziqarli va rang-barang shakllarda tashkil etilishi lozim. Shu nuqtai nazaridan, raqamli savodxonlikni shakillantirish jarayonida interaktiv o'yinlar, animatsiyalar, multimedial materiallar va sensorli faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o'yin asosida ta'lim raqamli savodxonlikni shakillantirishda yetakchi ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar mantiqiy topshiriqlar va interaktiv mashg'ulotlar bolalarda qiziqish uyg'otib, bilimlarni yanada mustahkam qilishga xizmat qiladi. Bolalarni raqamli muhitda mustaqil qaror qabul qilishga, natijani kuzatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli savodxonlikni shakillantirishda turli raqamli vositalardan foydalaniladi. Jumladan, interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlar, audio va video materiallar bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Ushbu vositalar an'anaviy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilgan holda

qo'llanilganda yuqori pedagogik samaradorlikka erishiladi. Raqamli ta'lim vositalari bolalarda mustaqil o'rganish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq ularning samarali qo'llanilishi pedagogning kasbiy va raqamli kompetensiyasiga bevosita bog'liqdir.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli savodxonlikni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi bolalarda raqamli qurilmalardan ongli, xavfsiz va maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ushbu jarayon bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, pedagogik jihatdan asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli savodxonlikni shakllantirishda o'yin faoliyatiga tayanish, yoshga moslik, faollik, mustaqillik hamda xavfsizlik prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim vositalaridan an'anaviy ta'lim shakllari bilan uyg'unlashgan holda foydalanish bolalarning bilish jarayonlarini faollashtiradi, mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida". — Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ta'lim to'g'risida". — Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — Toshkent, 2017.
4. Abdullayeva M. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. To'xtayeva H., Karimova N. Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, 2021.
6. Xolmatova Z. Bolalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalalari // Pedagogik ta'lim jurnali. — Toshkent, 2022.